


Ko'z Kasalliklari

16

BOB

KO'Z ANATOMIYASI (TUZILISHI) - YOKI KO'Z NIMADAN IBORAT



XAVFLI BELGILAR

Ko'z juda nozik a'zo bo'lib, ko'p e'tibor talab qiladi. Quyidagi xavfli belgilardan birortasi paydo bo'lsa, tez tibbiy yordamga murojaat qiling:

1. Ko'z soqqasining kesilishi yoki yorilishi natijasida hosil bo'lgan (ichigacha o'tgan) har qanday jarohatlarda.
2. Muguz pardasida og'riqli kul rang dog' paydo bo'lishi va atrofning qizarib ketishi (muguz pardasining yarasi).
3. Ko'z ichidagi qattiq og'riq (glaukoma yoki ko'z rangdor pardasining yallig'lanishi).
4. Ko'z ichi yoki bosh og'riganda ko'z qorachiqklarining juda o'zgarib ketishi.



Ko'z qorachiq-lari orasidagi farqlar miya shikastlanishi yoki chayqalishi, ko'z jarohatlanishi, glaukoma yoki ko'z rangdor pardasining yallig'lanishidan kelib chiqishi mumkin. (Qorachiq-larning biroz farq qilishi ba'zi odamlarda uchrab turadi.)

5. Ko'z muguz pardasining orqasida qon to'planishi (420-bet).

6. Bir yoki ikkala ko'zning xira tortib qolishi.

7. Ko'z antibiotik mazini 5,6 kun ishlatgandan keyin ham tuzalib ketmaydigan har qanday infeksiya yoki yallig'lanish hodisalari.



KO'Z JAROHATLANISHI

Ko'z soqqasining har qanday jarohatlanishi xavflidir, chunki u ko'rlikka olib kelishi mumkin. Hatto **muguz** pardasining (ko'z qorachig'i va rangdor pardani qoplab turuvchi tiniq parda) kichik kesilishi ham, agar unga to'g'ri davo qilinmasa, u infeksiyalanib, ko'rish qobiliyatiga shikast yetkazishi mumkin.

Agar ko'z jarohati chuqur va ko'zning rangdor pardasi (ko'z oqi, qavat tagida joylashgan) (ko'z pigmenti) gacha yetgan bo'lsa, bu holat juda xavfli hisoblanadi.


Agar zarbdan bo'lgan jarohat (musht bilan urgandek) ko'z soqqasining qon bilan to'lishiga sabab bo'lsa, ko'z xavf ostidadir (420-bet). Agar og'riq bir necha kundan so'ng birdaniga kuchaysa, bu juda xavflidir, chunki u o'tkir glaukoma boshlanganidan darak beradi. (415-bet).

Davolash:

◆ Agar, kasal jarohatlangan ko'z bilan hali ham yaxshi ko'ra olsa, ko'zga ishlatiladigan antibiotik mazidan (680-bet) qo'ying va uni yumshoq,

qalin bog'lam bilan qoplang. Agar ko'z bir yoki ikki kunda tuzalavermasa, tibbiy yordamga murojaat qiling.

◆ Agar, kasal jarohatlangan ko'zi bilan yaxshi ko'ra olmasa va jarohati chuqur bo'lsa yoki ko'z muguz pardasining orqasida qon bo'lsa (420-bet), ko'zga toza bog'lam qo'ying-da, tezda tibbiy yordamga murojaat qiling. **Ko'zni ustidan bosh-mang.**




◆ Ko'z soqqasida o'rnashib qolgan tikon yoki turli parchalarni **olishga harakat qila ko'rmang.**

Tibbiy yordamga murojaat qiling.

KO'ZDAGI ZARRANI QANDAY OLISH KERAK

Ko'ziga zarra tushgan odam ko'zini yumib chap, o'ng, baland va past tomonga qarasin. Yoki siz uning ko'zini ochib turganingizda baland va pastga qarasin. Bunda ko'z ko'p yosh chiqaradi va ko'pincha kirlar o'z-o'zidan yosh bilan chiqib ketadi.

Kir va qum zarrasini chiqarish uchun ko'zingizni toza suv bilan yuving (410-bet) yoki toza lattaning bir burchagini yoki namlangan paxtani ham ishlatishingiz mumkin. Agar kir zarrasi yuqori qovog'ingiz ostida bo'lsa, qovoqni ingichka cho'p ustiga ag'daring. Siz shunday qilganingizda odam pastga qarab tursin.



Ushbu zarracha ko'pincha qovoq qirg'og'idagi kichik tarnovchada bo'ladi. Uni toza latta bilan olib tashlang.

Agar siz zarrani osonlikcha olib tashlay olmasangiz, maxsus ko'z uchun ishlatiladigan antibiotik mazidan ko'zga qo'yib, tibbiy yordamga murojaat qiling.



KO'ZNING KIMYOVIY MODDALARDAN KUYISHI

Ko'ziga ishqor, ohak suvi, benzin yoki pestitsidlarning tushishi xavfli bo'lishi mumkin. Ko'zni ochiq tuting. **Tezda ko'zingizni toza, sovuqroq suv bilan yuving va 30 minut davomida** yoki og'rig'i qolgun-ga qadar chayib turing. Ignasiz shpritsga suv to'ldirib ko'zga sochish yaxshi natija beradi. Bunda sog'lom ko'zingizga suv tushirmaslikka harakat qiling.



KO'ZLAR QIZARISHI VA OG'RISHINING BOSHQA SABABLARI.

Turli muammolar ko'zni qizartirishi va og'ritishi mumkin. To'g'ri davolash ko'pincha kasallik sababini to'g'ri topishga bog'liq, shuning uchun ko'zni diqqat bilan tekshirib, mavjud bo'lishi ehtimoli bor har bir belgini yaxshilab izlab ko'ring. Ushbu jadval kasallik sababini topishga yordam berishi mumkin.

ko'zga biror narsaning tushishi (kir zarrasi kabi) (409-bet)	odatda faqat bir ko'zga ta'sir qiladi; qizarish va har xil og'riq bo'ladi
kuyish yoki zaharli suyuqliklar (410-bet)	bitta yoki ikkala ko'z; qizarish va har xil og'riq
kon'yuktivit (411-bet) Allergik tumov (allergik kon'yuktivitlar, 307-bet) traxoma (411-bet) qizamiq (558-bet)	odatda ikkala ko'zda bo'ladi (lekin bir ko'zda boshlanib, keyinchalik kuchayishi mumkin) odatda ko'zning tashqi qirg'og'i qizarib turadi. „achishtiruvchi“ og'riq, odatda yengilroq 
o'tkir glaukoma (415-bet) rangdor pardaning yallig'lanishi (414-bet) muguz pardasining shilinishi yoki unga yara chiqishi (419-bet)	odatda faqat bitta ko'z zararlanadi; muguz pardasiga yaqin joylarning qizarishi og'riq odatda juda kuchli bo'ladi 

KON'YUKTIVIT (KO'ZNING SHAFQA BOSISHI (KO'Z SHILLIQ PARDASI YALLIG'LANISHI))

Ushbu infeksiya bitta yoki ikkala ko'zning qizarishiga, yiringlashiga va bir qadar achishib turishiga olib keladi. Qovoqlar ko'pincha uxlagandan so'ng yopishib qoladi. Bu kasallik ko'proq bolalarda uchraydi.

Davolash:

Dastlab ko'zni qaynatilgan suvga ho'llangan latta bilan yiringdan tozalang, so'ng ko'zga ishlatiladigan antibiotik mazidan qo'ying (680-bet). Pastki qovoqni biroz o'zingizga torting va **ichiga** mazdan (surtmadan) biroz qo'ying, mana bunday qilib: mazni ko'z ustiga qo'yishdan foyda yo'q.



OGOHO BO'LING:
Tyubikni ko'zga
tekkizmang.

Oldini olish:

Kon'yuktivit kasalligi juda yuqumli bo'ladi. Infeksiya osongina bir odamdan ikkinchisiga o'tadi. Kon'yuktiviti bor bola boshqa bolalar bilan o'ynashi yoki uxlashiga yoki bitta sochiqdan foydalanishiga yo'l qo'ymang. Ko'zni ushlagandan so'ng qo'lingizni yuving.

TRAXOMA (SHILPIQ)

Traxoma(shilpiq) surunkali infeksion kasallik bo'lib, sekin-asta og'irlashib boradi. U bir oydan bir necha yilgacha davom etishi mumkin. Agar vaqtida davolanmasa, ko'rlikka olib kelishi mumkin. U ko'zga qo'l tekkizish yoki pashshalar orqali yuqadi va ko'pincha aholi zich joylarda uchraydi.

Belgilari:

• Traxoma oddiy konyuktivit kabi ko'zning qizarishi, yoshlanishi bilan boshlanadi.


• Bir oy yoki ko'proqdan so'ng yuqori qovoq ostida follikul deb ataladigan mayda-mayda kul rang pufakchalar paydo bo'ladi. Ularni ko'rish uchun rasmda ko'rsatilgandek qilib qovoqni orqaga ag'daring.

• Ko'z oqi biroz qizargan bo'ladi.

• Bir necha oydan so'ng, agar siz sinchiklab yoki kattalashtiruvchi oynak orqali ko'zga qarasangiz, siz muguz parda yuqori burchagining kul rang tusga kirganini ko'rishingiz mumkin, buning sababi, uning ichida yangi juda kichkina qon tomirlar(pannus) paydo bo'lganligidir.

• Follikul va pannus bo'lsa, buning traxomaligiga deyarli shubha yo'q.

• Bir necha yildan so'ng follikullar o'zidan so'ng oq chandiqlar qoldirib yo'qola boshlaydi.



Chandiqlar qovoqni qalinlashtiradi va ko'zni ochib, yumishga xalaqit berishi mumkin.

Chandiqlar kipriklarni ko'z ichiga tortishi, natijada, muguz pardasining shilinishi va ko'rlikka olib kelishi ham mumkin.



Traxomani davolash:

Tetratsiklin (637-bet) tabletkasini 2-3 hafta iching va ko'zga kuniga 3 mahal Tetratsiklin mazidan qo'ying.

Oldini olish:

Traxomani erta va to'la davolash orqali biz uning boshqalarga tarqalishining oldini olishimiz mumkin. Traxomasi bor odam bilan yashovchi odamlar, ayniqsa, bolalar o'z ko'zlarini tez-tez tekshirtirib turishlari va kasallik belgilari paydo bo'lgan zahotiy oq davolanishlari kerak. Yuzni har kuni yuvib turish ham traxomaning oldini olishga yordam beradi. Shuningdek, qo'llanmada keltirilgan Tozalik Qoidalariga rioya qilish juda muhimdir.

Tozalik - traxomaning oldini olishga yordam beradi.

YANGI TUG'ILGAN CHAQALOQLAR KO'ZLARINING YAL-LIG'LANISHI (CHAQALOQ KON'YUKTIVITI)

Agar birinchi 2 kun ichida chaqaloqning ko'zlari qizarib, shishib chiqsa va ko'p yiring bog'lasa, bu **blenoreya** (ko'zda rivojlanadigan so'zak) degan kasallik boshlanishi deb hisoblanadi va **gonoreya** (so'zak)dan (290-bet) dalolat beradi. Bola ko'r bo'lib qolmasligi uchun, kasallikni darhol davolash kerak. Agar ko'z infeksiyasi bola tug'ilganidan 1 -3 haftadan so'ng boshlansa, u **xlamidioz** kasalligiga uchragan bo'ladi. Bola bu kasalliklarning birini yoki ikkalasini ham onasidan tug'ilayotganda yuqtirib olgan bo'ladi. Hozir tug'ruqxonalarda bola tug'ilishi bilan blenoreyaga qarshi ehtiyot choralari ko'riladi.



Gonoreyani davolash:

◆ Kanamitsindan 50 mg. dan 75mg. gacha ukol qiling (430-bet). Penitsillin ham ba'zan yordam beradi: Benzilpenitsillin-natrydan 200.000 ED. dan kuniga 2 mahaldan 3 kun davomida qilish yetarlidir. Yoki T-iseptol siropidan kuniga 2 mahal 1/2 choy qoshiqdan bir hafta davomida ichir-ing (641-bet). (Agar iloji bo'lsa, Seftriakson 125 mg. miqdorida bir marta qilish eng yaxshi davodir.)

◆ Shuningdek tetratsiklinli ko'z mazidan qo'ying: birinchi kuni chaqaloqning ko'ziga mazdan har soatda, keyinchalik 2 hafta davomida kuniga 3 mahaldan qo'yib turasiz. (Avval 410-betda aytilgandek qilib, ko'zni yiringdan tozalang.)

Xlamidiozni davolash:

Yuqorida aytilgandek qilib tetratsiklin mazi bilan davolang. Shuningdek eritromitsin siropidan 2 hafta davomida kuniga 4 mahal 30 mg.dan ichiring. (Bu xlamidioz bilan og'riyotgan bolalarda ko'p uchraydigan zotiljamning oldini oladi.)

Oldini olish:

Ayniqsa, onalarida ushbu kasalliklar bo'lsa yoki otalari siyishga qiynalsa (og'riq sezsa), ulardan tug'ilgan barcha chaqaloqlar ko'zlari gonoreya va xlamidiozga qarshi himoyalaniishi kerak. (Onalar o'zlari bilmagan holda gonoreya yoki xlamidiya bilan og'rishi mumkin.) Bola tug'ilishi bilanoq uning ikkala ko'ziga ham faqat bir marta Kumush nitratning 1% li eritmasidan bir tomchi tomizing. Yoki chaqaloq ko'ziga Tetratsiklin yoki 0,5% li Eritromitsin mazidan quying (611-bet). Agar bolaning ko'zlari gonoreya yoki xlamidioz bilan kasallansa, uning ota-onasi ham ushbu infeksiyalarga qarshi davolanishi kerak (437-bet).

IRIT (KO'Z RANGDOR PARDASINING YALLIG'LANISHI)

NORMAL KO'Z



IRITI BOR KO'Z



Belgilari:

„ qorachiq kichiklashgan, chegaralari ko'pincha notekis rangdor pardaning atrofi qizg'ish va qattiq og'riydi

Irit ko'pincha bir ko'zda bo'ladi. Og'riq birdan yoki asta-sekin boshlanishi mumkin. Ko'zdan ko'p yosh oqadi. Yorug'likda ko'z ko'proq og'riydi. Ko'z soqqasiga tegilganda og'riydi. Konyuktivitdagi kabi yiring bo'lmaydi. Ko'zning ko'rishi xiralashadi. **Bu tezlik bilan davo qilish zarur bo'lgan holatdir.** Antibiotikli mazlar bunga yordam bermaydi. **Tibbiy yordamga murojaat qiling.**


GLAUKOMA (KO'KSUV)

Ushbu xavfli kasallik ko'z ichki bosimining ortishidan kelib chiqadi. U ko'pincha 40 dan oshgan odamlarda uchraydi va odatda ko'rlikka olib boradi. **Ko'rlikning oldini olish uchun glaukoma belgilarini vaqtida bilib, tez tibbiy yordam olish kerak.**

Glaukomaning 2 turi mavjud.

O'TKIR GLAUKOMA.

Bu bosh yoki ko'zda birdan qattiq og'riq turishi bilan boshlanadi. Ko'z qizarib, xiralashadi. Ko'z soqqasiga tegilganda marmardek qattiq bo'lib seziladi. Odam qayt qiladi. Og'riyotgan ko'zning qorachig'i sog'lom ko'z qorachig'iga nisbatan kattaroq bo'ladi.




Agar o'tkir glaukomaga tez davu qilinmasa, u bir necha kun ichida ko'rlikka olib kelishi mumkin. Bu holatda ko'pincha operatsiya qilinadi. **Tez tibbiy yordamga murojaat qiling.**

SURUNKALI GLAUKOMA

Ko'z bosimi asta-sekin ko'tariladi. Odatda hech qanday og'riq sezilmaydi. Kasallik yon tarafni yaxshi ko'ra olmaslikdan boshlanib, ko'rish asta yomonlashib boradi, ko'pincha bemor uning yomonlashayotganini sezmaydi. Yon atrofni ko'rishni tekshirish yo'li bilan kasallikni bilib olish mumkin.

GLAUKOMA (Ko'ksuv) BOR YO'QLIGINI TEKSHIRISH



Kasal bir ko'zini biror narsa bilan berkitsin va ochiq ko'zi bilan ro'parasida turgan narsaga qarasin. Kasal boshi orqasidan ikkala tarafdan ham kelayotgan qo'llarni ko'ra olishiga e'tiboringizni qarating.

Odatda qo'llar birinchi bor mana bu joydan ko'rina boshlaydi.

Glaukomada barmoqlar harakati birinchi bor deyarli bemor ro'parasida ko'rina boshlaydi.

Agar kasallik erta aniqlansa, maxsus ko'z tomchilari (Pilkarpin kabi) yordamida ko'rlikning oldini olish mumkin. Dorining miqdori ko'z bosimini o'lchashni biladigan shifokor tomonidan vaqti-vaqti bilan tekshirilishi kerak. Tomchilardan kasalning umri davomida foydalanish kerak. Iloji bo'lsa, operatsiya bilan davolash eng ishonchli yo'ldir.

Oldini olish:

Yoshi 40 dan oshgan va glaukomali qarindoshlari bor odamlar ko'zlarining bosimini har yili tekshirtirib turishlari kerak.

KO'Z YOSH XALTACHASINING INFEKSIYALANISHI (DAKRIOTSISTIT)

Belgilari:

Burun atrofi — ko'zning ichki past qismining qizarishi, og'rishi va shishishi. Ko'z ko'p yoshlanadi. Shishgan joy asta-sekin ezilib ko'rilganida, ko'zning qirg'og'ida yiring tomchisi paydo bo'lishi mumkin.



Davolash:

- ◆ Issiq kompresslar qiling.
- ◆ Ko'z ichiga antibiotikli dori tomizing yoki maz(surtma) qo'ying.
- ◆ Penitsillin qabul qiling (629-bet).

ANIQ KO'RA OLMASLIK MUAMMOLARI (SABABLARI)

Yaxshi ko'ra olmaydigan yoki kitob o'qiganda boshi yoki ko'zi og'riydigan **bolalarga** ko'zoynak kerak bo'lishi mumkin. Ko'zlarini maxsus ko'z jadvali bilan tekshirib ko'ring. Yaxshi ko'ra olmaydigan bolalar, ko'z shifokoriga murojaat qilishi kerak.


Yillar o'tgan sari **yoshi katta odamlarning** oldidagi narsalarni aniq ko'rishga qiynalishi tabiiydir. O'qish uchun ko'zoynaklar ko'pincha yordam beradi. Sizga 40 sm. uzoqlikdagi narsalarni aniq ko'rsata oladigan ko'zoynakni tanlab oling. Agar ko'z oynaklar yordam bermasa ko'z shifokoriga uchrang.



G'ILAYLIK VA UNING TURLARI

Agar ko'z, ba'zan o'zidan o'zi mana bunday chetga qarab ketadigan bo'lsa, ammo to'g'riga qaraganda normallashta, odatda bundan xavotirlanmasangiz ham bo'ladi. Vaqt o'tgan sari ko'z yaxshilanib ketadi. Lekin ko'z doim boshqa tarafga qarab turadigan bo'lsa va bolaning yoshligida bunga davo qilinmasa, u hech qachon shu ko'zi bilan yaxshi ko'rmasligi mumkin.


Bolaning sog'lom ko'ziga bog'lam qo'yish, operatsiya yoki maxsus ko'zoynaklar kerakligini bilish uchun iloji boricha ko'z shifokoriga murojaat qiling.



Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

Agar operatsiya qilinsa, u ko'zni to'g'rilashi va bolaning ko'rinishini o'zgartirishi mumkin, lekin kechikib qilingan operatsiya kasal ko'zni yaxshiroq ko'radigan bo'lishiga yordam bera olmaydi.

MUHIM: Xar bir bolaning ko'rish qobiliyati iloji boricha ertaroq tekshirilishi kerak (taxminan 4 yoshlarda). Bunda siz maxsus „E“ shaklli jadvalni ishlatishingiz mumkin. Muammo faqat bir ko'zda ekanligini aniqlash uchun har ikkala ko'zni ham alohida-alohida tekshiring. Agar bolaning ko'rish qobiliyati ikkala ko'zda ham yomon bo'lsa, ko'z shifokoriga murojaat qiling



NINALOG'ICH (GOVMICHCHA)

Ko'z qovog'ining chetida, kipriklar oldida yoki ichkarida qizil, shishgan tuguncha paydo bo'ladi. Davolash uchun biroz tuz solingan iliq suvli kompresslar qo'ying. Kuniga 3 mahal antibiotikli ko'z mazini ishlatish yangi govmichchanning paydo bo'lishi oldini oladi.



PTERIGIUM

Ko'zning burun tarafidagi oq qismidan o'sib chiqib, asta-sekin muguz pardasigacha yetib boradigan qalin, go'shtdor o'simta; qisman quyosh nuri, shamol va chang ta'sirida paydo bo'ladi. To'q qora rangli ko'z oynak ta'sirlanishni kamaytirib, pterigiumning o'sishini sekinlashtiradi. U qorachiqqa o'sib borgunga qadar operatsiya qilinishi kerak.

Afsuski, ko'pincha operatsiyadan so'ng ham pterigium qayta o'sib chiqadi. Ko'z qichishi yoki qizishini pasaytirish uchun siz sovuq kompresslar qilishingiz mumkin.



MUGUZ PARDANING SHILINISHI, YARALANISHI YOKI CHANDIQLANISHI

Muguz pardaning juda nozik, yupqa yuzasi shilinganda, yoki biror infeksiya orqali shikastlanganda **muguz pardada** og'riqli **yara** paydo bo'lishi mumkin. Yorug'likda yaxshi tikilib qarasangiz, muguz pardaning yuzida kul rangli yoki unchalik yaltiramaydigan dog'ni ko'rishingiz mumkin.



Agar kasal yaxshilab davolanmasa, muguz parda yarasi ko'rlikka olib kelishi mumkin. 7 kun davomida kuniga 4 mahaldan antibiotikli ko'z mazidan qo'ying, penitsillin ishlatilganda (629-bet) va ko'zga yumshoq bog'lam qo'ying. Agar ko'z 2 kun ichida yaxshi bo'lmasa, shifokorga uchrang.

Muguz pardadagi chandiq bu og'riqsiz oq dog'dir. U muguz parda yarasi bitib ketganidan keyin, kuygan joy yoki ko'zning boshqa jarohatlari tuzalganidan keyin qolgan bo'lishi ham mumkin.

Agar kasalning ikkala ko'zi ham ko'rmay qolsa-yu, lekin u hali ham yorug'likni sezayotgan bo'lsa, bir ko'z operatsiyasi (muguz parda trasplantatsiyasi) uning qayta ko'rishiga yordam berishi mumkin. Lekin bu, qimmatga tushadi.



Agar bir ko'zda chandiq bo'lsa, boshqasi esa yaxshi ko'rsa, operatsiya qildirmaganingiz ma'qul. Sog' ko'zingizni jarohatlardan ehtiyot qiling.

KO'Z OQIGA QON QUYILISHI

Ko'z oqida qon singari qizil, og'riqsiz dog bo'lishiga sabab ba'zan biror og'ir narsani ko'tarish, qattiq yo'talish (ko'kyo'tal singari) yoki ko'zga zarb tegishi va boshqalardir. Ushbu hol, kichik tomirning yorilishidan kelib chiqadi. Bu holat xavfsizdir, u ham ko'kargan joydek 2 haftada o'z-o'zidan yo'qolib ketadi.



Yangi tug'ilgan chaqaloq ko'zlarida kichik qizil dog'lar bo'lishi oddiy holdir. Davolashning hojati yo'q.

MUGUZ PARDA ORQASIGA QON QUYILISHI (GIFEMA)

Muguz parda orqasiga qon quyilishi xavf belgisidir. U ko'pincha ko'zga musht kabi to'mtoq narsa bilan urushdan kelib chiqadi. Agar ko'z og'risa yoki ko'ra olmasa kasalni tezlik bilan ko'z mutaxassisi oldiga olib boring. Agar ko'z qattiq og'rimasa, ko'ra olsa kasalni yotqizing va bir necha kun dam oldiring.



Agar bir necha kundan so'ng og'riq zo'rayssa, bu holat ko'zning qattig'lashishi (glaukoma, 415-bet) bo'lishi mumkin. Kasalni **tezda** ko'z shifokoriga olib boring.

MUGUZ PARDA ORTIDAGI YIRING (GIPOPION)

Muguz parda ortidagi yiring qattiq *yallig'lanish* belgisidir. U ba'zan muguz parda yaralari tufayli paydo bo'ladi va ko'z xavf ostida ekanligidan darak beradi. Penitsillin(629-bet) ishlating va tez tibbiy yordamga murojaat qiling. Agar yara to'g'ri davolansa, gipopion o'z-o'zidan yo'qolib ketadi.



KATARAKTA (GAVHAR XIRALASHUVI)

Bunda ko'z qorachig'i ortidagi ko'z gavhari xiralashadi va natijada, siz ko'zga yorug'lik tushirganingizda qorachig'i kulrang yoki oq bo'lib ko'rinadi. Katarakta ko'pincha katta yoshli odamlarda uchraydi, ammo yosh chaqaloqlarda ham kamdan kam hollarda uchrab turadi.



Agar ushbu kasallik tufayli ko'zdan qolgan odam qorong'ulik va yorug'likning farqiga borsa, harakatlarni ko'ra olsa, operatsiya yordamida uning ko'zi tuzatilishi mumkin. Lekin hozirgi paytda operatsiya yo'li bilan ko'zga sun'iy gavhar qo'yilmoqda. Agar ko'zga sun'iy gavhar qo'yilsa, ko'zoyinak taqish kerak emas. Kataraktada dorilar yordam bermaydi.

SHABKO'RLIK. KO'Z QURUQLIGI (KSEROFTALMIYA) (A VITAMININING YETISHMASLIGI)

Ushbu kasallik 1-5 yoshgacha bo'lgan bolalarda ko'p uchraydi. Bu kasallik A vitaminni yetarli iste'mol qilmaslikdan kelib chiqadi. Agar kasallik vaqtida aniqlanib, davolanmasa bola ko'r bo'lib qolishi mumkin.



Belgilari:

- Dastlab bola **shabko'r** bo'lishi mumkin. Bola oqshomda boshqalardak yaxshi ko'ra olmaydi.
- Keyinchalik ko'zlar nomi qochib, **quriy boshlaydi** (kseroftalmiya). Ko'z oqi o'z yaltiroqligini yo'qotib, burusha boshlaydi.



Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

- Kichik kul rang pufakchasimon dog'lar ham paydo bo'lishi mumkin.

- Kasallik zo'raygan sari muguz parda quruqshab, xiralashib boradi va kichik chuqurchalar paydo bo'lishi mumkin.

- So'ng muguz parda ko'p o'tmay yumshab qolishi; shishib chiqishi va hatto yorilib ketishi ham mumkin. Odatda hech qanday og'riq sezilmaydi. Infeksiya tushishi, chandiq yoki boshqa shikastlanishlardan bola ko'r bo'lib qolishi mumkin.

- Kseroftalmiya ko'pincha bola boshqa bir ich ketish, ko'k yo'tal, sil yoki qizamiq kabi kasaliklar bilan og'riganda boshlanadi va og'irlashadi. Kasal va ozg'in bolalarning ko'zlarini **tekshirib turing** va A vitamini yetishmasligi belgilariga e'tiboringizni qarating.



Oldini olish va davolash:

A vitaminga boy ovqatlarni iste'mol qilish yo'li bilan, shabko'rlikning oldini olish oson.

Quyidagilarni qiling:

- Iloji bo'lsa, bolani 2 yoshga to'lgunga qadar emizing.

- Bola 6 oylik bo'lgandan so'ng, A vitamini ga boy to'q yashil bargli sabzavotlar, oshqovoq, sabzi kabi sariq yoki to'q sariq rangli meva va sabzavotlardan berib turing. Sut, tuxum va jigarlar ham A vitaminiga boy.

- Agar bola yuqoridagilarni iste'mol qila olmasa va shabko'rlik yoki kseroftalmiya boshlangan bo'lsa, har 6 oyda 200.000 ED. miqdorida A vitamin (Retinolning kapsula yoki suyuq shaklidan 60 mg.) (705-bet) berib turing. 1 yoshga to'lmagan bolalar 100.000 ED. miqdorida vitamin olishlari kerak.



- Agar ahvol og'irlashib ketgan bo'lsa, birinchi kuni bolaga 200.000, ikkinchi kuni yana 200.000 ED. miqdorida, keyin oradan 14 kun o'tkazib, 200000 ED. miqdorida vitaminni takroran berasiz. 1 yoshga to'lmagan bolalar, bu miqdorning yarimini ichishlari kerak (100.000 ED.).

- Kseroftalmiya ko'p uchraydigan joylarda homiladorlikning 2-yarimida hamda emizikli ayollarga har 6 oyda A vitamidan 200.000 ED. miqdorida berib turing.

OGOHO BO'LING: A vitamini ko'p iste'mol qilinsa, zaharli ta'sir ko'rsatadi.. Yuqorida aytilgan miqdordan ortiq bermang.

Agar bolaning muammolari kuchaysa, muguz pardasi xiralashsa va unda shishgan joy yoki chuqurchalar paydo bo'la boshlagan bo'lsa, tibbiy yordamga murojaat qiling. Bola ko'ziga bog'lam qo'yilib, o'sha zahoti unga 100 000 ED. miqdorida A vitamin ukol qilinishi kerak.

To'q yashil bargli sabzavotlar, sariq va to'q sariq rangli meva, sabzavotlar, bolani ko'r bo'lib qolishdan saqlaydi.

KO'Z OLDIDAGI KICHIK DOG'LAR YOKI KO'Z JIMIRLASHI

Ba'zi yoshi katta odamlar yorug' va oq narsaga (devor, osmon) qaraganlarida ko'z oldilarida kichkina dog'lar jimirlab turishidan shikoyat qiladilar. Dog'lar u yoq bu yoqqa harakatlanadi yoki ko'zga kichik pashshalardek ko'rinadi. Ushbu dog'lar xatarli emas va ularni davolashning keragi yo'q. Lekin ular birdan ko'p bo'lib ko'rinsa va ko'rish maydonining bir tarafiga tusha boshlasa, tibbiy yordam kerak bo'lishi mumkin (ko'z to'r pardasining ko'chishi).

Tez tibbiy yordamga murojaat qiling.

BIR NARSANI IKKITA KO'RISH

Bir narsani ikkita ko'rishning sabablari ko'p bo'lishi mumkin.

Agar bunday hol birdan, surunkali bo'lsa yoki asta kuchayib borsa, bu jiddiy bo'lishi mumkin. Tibbiy yordamga murojaat qiling.

Agar bir narsani ikkita ko'rish vaqti-vaqti bilan yuz bersa, bu quvvatsizlik, o'ta charchash, silla qurishidan yoki ovqatga yolchimaslikdan bo'lishi mumkin. Yaxshi ovqatlanish xususida, 11-Bobni o'qing va iloji boricha yaxshi ovqatlaning. Agar ko'rish qobiliyatingiz yaxshilanmasa, tibbiy yordamga murojaat qiling.

Ko'rish qobiliyati susayganda maxsus kasalxonalarda dori-darmon bilan davolashning foydasi yo'q va bu pulingizni bekordan bekor sarflashdir.

Ko'z vrachiga murojaat qiling va u ko'zingizni tekshirgandan so'ng o'zingizga mos kelgan ko'zoynaklarni tavsiya etadi.

